



## KELISHIK KATEGORIYASINING O'RGANILISH TARIXIGA DOIR

*Shofqorov A.M.*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti*

**Tayanch soʻzlar:** morfologiya, morfologik kategoriya, soʻz tarkibi, qoʻshimcha, yordamchi soʻzlar, grammatik shakl, grammatik maʼno.

**Ключевые слова:** морфология, морфологическая категория, структура слова, суффикс, вспомогательные слова, грамматическая форма, грамматическое значение.

**Key words:** morphology, morphological category, word structure, suffix, auxiliary words, grammatical form, grammatical meaning.

**Резюме:**

Maqolada kelishik kategoriyasi, uning oʻrganilish tarixi yoritilgan. Shuningdek, kelishiklarning tilshunoslikda, xususan, oʻzbek tilshunosligida oʻrganilishi, tarixiy taraqqiyoti, kelishik shakllari, ularning miqdori masalalari haqida fikr yuritilgan.

**Резюме:**

В статье описывается категория падежа и история ее изучения. Также обсуждались вопросы изучения падежей в языкознании, в частности в узбекском языкознании, их исторического развития, форм падежа, вопросов их количества.

**Summary:**

The article describes the category of agreement and the history of its study. Also, the study of agreements in linguistics, particularly in Uzbek linguistics, their historical development, forms of agreement, and issues of their quantity were discussed.

Tilshunoslik maktablari dastlab qadimgi Hindiston, Yunoniston, Rim va keyinchalik Xitoy mamlakatlarida paydo boʻlib, Oʻrta Asrlardan bu boradagi qarashlar Yevropa, Arabiston, Oʻrta Osiyoda taraqqiy qilgan. Tilshunoslik mustaqil fan sifatida XIX asrning boshlariga kelib shakllangan.

Qadimgi hind tilshunosligida morfologiya chuqur oʻrganilgan. Ular bu yoʻnalishda yunon tilshunoslaridan ancha ilgari ketgan. Hind tilshunoslari morfologiyani soʻzlar tasnifi – soʻz turkumlari, soʻz yasalishi va soʻz oʻzgarishi qismlariga boʻlib oʻrganadi. Hindlar tilda mavjud soʻzlarni toʻrt soʻz turkumi doirasida oʻrgangan. Bular: ismlar, feʼllar, old koʻmakchilar va yordamchilar.

Soʻz turkumlarini oʻrganish mana shu davrdan boshlangan. Ular soʻz tarkibini oʻzak, suffiks va qoʻshimcha (turlovchi qoʻshimcha)ga boʻladi.

Hind tilshunoslarining yutuqlaridan yana biri ular kelishiklarni ajratgan va yettita kelishikni – bosh kelishik, qaratqich kelishigi, joʻnalish kelishigi, tushum kelishigi, qurol kelishigi, chiqish kelishigi va oʻrin kelishigini farqlagan.

Yunonistonda ham bu boradagi kuzatishlar ancha qadimiy. Yunon tilshunosligining taraqqiyoti “Falsafiy davr” va “Grammatik davr” kabi ikki bosqichga boʻlinadi. Qadimgi yunon faylasuflari Anaksimenes, Pridik, Protogor, Platon, Aristotellar olib borgan izlanishlar natijasida morfologiyaning oʻziga xos jihatlari, kelishiklar haqida qimmatli maʼlumotlar bayon etilgan. Xususan, stoiklar soʻzlarni besh turkumga – feʼl, bogʻlovchi, artikl, atoqli otlar va turdosh otlarga ajratgan va kelishiklarning ham beshta turini farqlagan. Bular: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, joʻnalish kelishigi, tushum kelishigi va chaqirish kelishigi.

Xitoy tilshunosligida, xususan, Xan davrida (miloddan oldingi 206-yillardan milodiy 220-yillargacha) leksikologiya, leksikografiya, iyeroglifika, fonetika, grammatika va dialektologiya masalalariga katta eʼtibor berilgan. Ular mustaqil soʻzlarni yordamchi soʻzlardan farqlagan. Mustaqil soʻz turkumlariga ot, sifat va feʼllarni kiritishgan.

Yevropa tilshunoslari soʻz tarkibini oʻzak, soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchilarga ajratadi.

Arab tilshunoslari uchta soʻz turkumini – ismun (ot), feʼlun (feʼl) va harfun (yuklama, yordamchi soʻzlar va affikslar)ni farqlaydi. Otning tarkibiga ot, sifat, son, olmoshlarni ham kiritadi.

Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” (Turkiy soʻzlar devoni) asarida soʻzlar arab tilshunosligi anʼanalariga tayanilib uch turkumga ajratiladi: ot, feʼl, yordamchi soʻzlar. Mahmud Az-Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarida soʻz turkumlari ism (ot), feʼl, bogʻlovchilarga boʻlib oʻrganilgan.

Oʻrta Osiyoning qomusiy olimlari ham tilshunoslik fani taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan. Abu Nasr Forobiy soʻz turkumlarini ot, feʼl va harflar (yordamchilar)ga ajratadi.

XIV asrda yaratilgan muallifi nomaʼlum “At-tuhfatuz zakiyati fillugʻatit turkiya” (Turkiy til haqida noyob tuhfa) asarida turkiy tillarning koʻpgina xususiyatlari haqida qimmatli maʼlumotlar beriladi. Turkiy tillarning son, egalik, kelishik grammatik kategoriyalari haqida maʼlumotlar berilgan. Unda beshta kelishik farqlangan – tushum kelishigi, joʻnalish kelishigi oʻrin-payt kelishigi, chiqish kelishigi va birgalik kelishigi.



Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ham morfologik kategoriyalar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

O‘zbek tilining morfologiyasi va sintaksisi birinchi marta alohida fan sifatida Abdurauf Fitrat tomonidan o‘rganilgan va uning “Sarf”, “Nahv” nomli qo‘llanmalari nasr etilgan.

G‘. Abdurahmonov va A. Rustamovlarning “Qadimgi turkiy til” darsligida kelishiklarning quyidagi turlari berilgan: qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo‘nalish kelishigi, o‘rin-chiqish kelishigi, chiqish kelishigi, vosita kelishigi.

N. Rahmonov va Q. Sodiqovlar “O‘zbek tili tarixi” darsligida qadimgi turkiy tilda yettita kelishik bo‘lganligini yozadilar.

O‘zbek tilining kelishik kategoriyasi haqida dastlabki tadqiqot A. G‘ulomov tomonidan olib borildi va “O‘zbek tilida kelishiklar” nomi bilan 1941-yili nasr etilgan. Shuningdek, A.N. Kononovning o‘zbek tili grammatikasi bo‘yicha ikki qismdan iborat kitobi mavjud. 1962-yili M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlarning “O‘zbek tili” darsligi nasr etildi. 1966-yili taniqli tilshunos olim G‘.Abdurahmonovning umumiy tahriri ostida “O‘zbek adabiy tili” (Fonetika. Leksikologiya. Morfologiya) kitobining 1-jildi bosmadan chiqdi. 1975-yili “O‘zbek tili grammatikasi” (I tom, Morfologiya; II tom, Sintaksis) nasr etildi. 1980-yilda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligi nasr etildi. Ushbu qo‘llanma va darsliklarda morfologiya va morfologik kategoriyalar haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Ushbumanbalardanshunarsaayonki, tilshunoslik fani tarixida so‘z turkumlari, ot so‘z turkumi va uning kelishik kategoriyasi haqidagi qarashlar miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Ot so‘z turkumi barcha tillarda mavjud bo‘lib, uning grammatik kategoriyalari har bir tilning o‘z ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda farqlanadi. Xususan, rus tilida oltita kelishik mavjud bo‘lsa, tojik tilida kelishik mavjud emas. Bu tilda kelishiklarning vazifasini ko‘makchilar bajaradi.

Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida qadimda 4 ta kelishik mavjud bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik 7 ta kelishik va hozirgi vaqtda 6 ta kelishik farqlanmoqda.

Kelishik kategoriyasi morfologik kategoriyalar sirasiga mansub. Sh.Shahobiddinova morfologik kategoriyalarni son kategoriyasi, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, subyektiv munosabat kategoriyasi, qiyoslash kategoriya, nisbat kategoriyasi, o‘zgalovchi kategoriyasi, kesimlik kategoriyasi kabi turlarga bo‘ladi.

Kelishik kategoriyasi ma’lum formalar sistemasi orqali ifodalanadi va alohida bir paradigmani (kelishik paradigmasini) hosil qiladi. Kelishik kategoriyasi olti shaklning sistemasi bilan shakllanadi, ularning har biri ma’lum ma’nolar



kompleksini ifodalaydi. Bu shakllar: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo‘nalish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi.

Kelishik kategoriyasi sintaktik qurilmada tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Bosh kelishikdan tashqari har bir kelishik maxsus qo‘shimcha bilan ifodalanadi. Lekin otning kelishik qo‘shimchasini olmagan shakli boshqa kelishiklarga nisbatan alohida shakl sanaladi. Kelishik shakllari orqali bir so‘zning boshqa so‘z bilan tobe aloqasi ifodalanadi.

Azim Hojiyev “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 2007-yil 6-sonida e‘lon qilingan “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” nomli maqolasida “bosh kelishik haqida aytilgan gaplar o‘zbek tilida kelishikning shunday turi borligidan ko‘ra yo‘q ekanligini isbotlashga yordam beradi,” – degan fikrni bayon etgan va buni quyidagicha izohlaydi:

1. Bosh kelishikning shakl ko‘rsatkichiga ega emasligi (shakl yasovchisining yo‘qligi) shuningdek, turkiy tillar tarixiga oid adabiyotlarda bu kelishikning tarixan maxsus shakli bo‘lmaganligi.

2. Bosh kelishikning boshqa kelishiklar kabi muayyan ma‘no va vazifaga, shu ma‘no va vazifadan kelib chiqadigan o‘ziga xos, o‘ziga mos nomga ega emasligi.

3. Bosh kelishikning boshqa kelishiklar kabi kelishtirish, bog‘lash, moslashtirish kabi vazifalarni bajarmasligi.

4. Bosh kelishikning semantik jihatdan juda boyligi, gapda xohlagan gap bo‘lagi vazifasida kela olishi. Bosh kelishikdan tashqari birorta kelishikning bunday xususiyatga ega emasligi. [5. 35-b.]

Ot, olmosh va otlashgan so‘zlarga qo‘shilib, ularni boshqa so‘zlarga bog‘lash uchun xizmat qiluvchi grammatik shakllar tizimi kelishik shakllari sanaladi. Kelishik shakllari kelishik kategoriyasini tashkil etadi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasida kelishik kategoriyasining o‘ziga xosliklari quyidagicha talqin qilinadi. “Kelishik kategoriyasining umumiy grammatik ma‘nosi sintaktik qurilmada tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lash. Bu bilan u egalik kategoriyasiga qarama-qarshi tursa, fe‘lning o‘zgalovchi kategoriyasi, bog‘lovchilar va ko‘makchilarga yaqin turadi. Ammo ulardan farqli jihatga ega. Ko‘makchidan morfologik ko‘rsatkich (qo‘shimcha) ekanligi bilan farqlanadi. Ko‘makchilar grammatik ma‘no ifodalash, so‘zlarni bir-biriga bog‘lash vazifasini bajarsa-da, leksik birlik hisoblanadi. O‘zgalovchi kategoriya shakllaridan barcha mustaqil so‘zni sintaktik aloqaga kiritish, so‘zning lug‘aviy ma‘nosiga ta‘sir etmasligi bilan ajraladi. Holbuki, o‘zgalovchi kategoriyasi faqat fe‘lga xos va fe‘llarning lug‘aviy ma‘nosiga ta‘sir etishi bilan lug‘aviy sintaktik mohiyatga ega. Shuning uchun ular “Fe‘l kelishiklari”



deb ham yuritiladi. Bog‘lovchilardan esa tobe aloqa uchun xizmat qilib so‘z birikmalariga xosligi hamda grammatik ko‘rsatkich (qo‘shimcha) ekanligi bilan farqlanadi”. [10.173-b.]

Kelishik, avvalo, turkumni emas, balki sintaktik vazifalarni belgilovchi shakl. Demak, bu jihatdan kelishik asli turkumlararo forma hisoblanadi. Lekin kelishik barcha turkumlarga, aniqrog‘i barcha bo‘laklarga xos emas. Masalan, bu grammatik kategoriya tabiiy ravishda otlarga mansub, ot leksemaning nutqda namoyon bo‘lishi uchun zaruriy shakllardan biridir.

Ayrim kelishiklar so‘zshakli tarkibida ko‘makchi kabi muayyan presuppozitsiyaning shakllanishiga yo‘l ochadi. Bunday holatda kelishiklarning pragmatik vazifa bajara olishi kuzatiladi. Bunda kelishiklarning nutq vaziyati, kontekst bilan bog‘liq vazifaviy imkoniyatlari yuzaga chiqadi.

Pragmatika (pragma – ish, harakat) aslida falsafiy tushuncha bo‘lib, u Sokratdan oldingi davrlarda ham qo‘llanishda bo‘lgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o‘zlashtirganlar. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g‘oyasi semiotik belgining ma‘no-mazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog‘liq holda o‘rganishdir.

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida o‘tgan asrning 60-70-yillarida shakllangan. O‘zbek tilshunosligida ham ushbu yo‘nalishda ma‘lum tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, M. Hakimov tadqiqotida “Pragmatika lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo‘llanishini o‘rganadi”, – deb yozadi. [3. 6-b.]

Til birliklarini pragmatik yo‘nalishda tadqiq etish ularning bevosita ko‘zga tashlanmaydigan, faqat nutqda yuzaga chiquvchi ichki imkoniyatlarini aniqlashga yo‘l ochadi. Natijada til birliklarining nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holda reallashuvchi pragmatik vazifalarini aniqlash muammosi yuzaga keladi.

Keyingi yillarda lingvistik pragmatika tilning barcha sath birliklari doirasida o‘rganila boshlandi. Buning natijasida tilshunoslikda pragmatikaning fonopragmatika, morfopragmatika, leksopragmatika, sintaktik pragmatika kabi yo‘nalishlari yuzaga keldi.

Presuppozitsiya pragmatik hodisa sifatida til belgisining nutq bilan bog‘liq jihatlarini namoyish qiladi. Presuppozitsiya termini lotincha sub-osti, tagi va ponere-joylashtirmoq, joylashmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, asosga o‘zakka joylashtirmoq ma‘nolarini anglatadi. Presuppozitsiya gapda nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holda yashirin tarzda reallashuvchi hodisa, uning to‘g‘ri ta‘minlanishida nolisoniy omillar – nutqiy vaziyat, kontekst, so‘zlovchi va tinglovchiga oldindan

ma'lum bo'lgan umumiy bilimlar hamda nutq egalarining nutq ko'nikmalari yordamga keladi.

Kelishikli so'zshakllarning gap tarkibida presuppozitsiyaga ishora qilishi muayyan nutqiy vaziyat bilan bog'langan lingvistik qonuniyat – tejash tamoyili asosida ham amalga oshadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kelishik kategoriyasi tilshunoslikning eng qadimgi davrlaridan o'rganila boshlangan va turli tillarda o'ziga xos shaklda qo'llanish xususiyatiga ega bo'lgan. Ba'zi tillarda esa kelishik mavjud emasligini ham kuzatishimiz mumkin. O'zbek tilining tarixiy taraqqiyotida kelishiklar miqdori turlicha bo'lsada, hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita kelishik mavjudligi aytiladi. Tilshunos olimlarning hozirgi o'zbek adabiy tilida kelishiklar miqdori masalasidagi fikrlari kelishik kategoriyasini ilmiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. Azimov I. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: TDPU, 2012. – 96 b.
2. Бурханов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси. (пре-суппозицион аспект): Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Т.: 2008. – 27 б.
3. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2013. – 176 b.
4. Hojiyev A. O'zbek tilining morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. – T.: Fan, 2010. – 256 b.
5. Hojiyev A. O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. (to'qqizinchi maqola) // O'zbek tili va adabiyoti, 2007. 6-son.
6. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005.
7. Mengliyev B. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari. – T.: NDA, 1996. – 214 b.
8. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. – T.: Sharq, 2001. – 164 b.
9. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –T.: O'zME, 2008. – 285 b.
10. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 414 b.
11. Ўзбек тили грамматикаси. Академнашр. I том. Морфология. – Т.: Фан, 1975. – 612 б.